

ko'nikmalari oz bo'lsa, bunday shaxs ba'zan bilib yoki bilmay yomon ishlarga qo'l uradi. Tarbiyaning ikki asosi bor: fazilatni qo'riqlaydigan go'zal axloq va yaramas yo'ldan, yomon ahvolga tushishdan saqlaydigan hushyorlik. Ota farzandini dunyo olovidan qanchalik himoya qilsa, oxirat olovidan undan-da ko'proq himoya qilmog'i kerak. Odob-u tarbiya vositasida yaxshi xulqlarni o'rgatish, yomonliklardan qaytarish, to'kin-sochinlikka odatlantirmaslik, ziynatga muhabbat uyg'otmaslik bilan ota farzandini oxirat olovidan asraydi. Bunday kishilar maqsadiga tez yetadigan shaxslar bo'lib yetishadi. Farzand tarbiyasi qanchalik erta boshlansa, tarbiya natijasi shunchalik samarali bo'ladi. Chunki erta yoshda ularni yaxshilik tomon burish osonlik bilan kechadi. Tarbiasizlikdan vujudga kelgan yomon xulq va odatlarni keyinchalik qayta tarbiyalash yo'li bilan tuzatish mumkin. Ammo buning uchun ko'p mehnat sarf qilishga to'g'ri keladi. Shunday ekan, kelajak avlodni "Qur'on", hadis, shuningdek pandnoma ruhida yozilgan asarlar asosida tarbilab voyaga yetkazish muhimdir. Bu xususida Alisher Navoiy asarlari bizga asosiy manbalardan biri sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. "O'zbekiston" nashriyoti. Toshkent, 2021, 257-bet.
2. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 8-jild. Toshkent, 2013, 602-bet.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild, Toshkent, 2013, 536-bet.
4. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. "O'zbekiston" nashriyoti. Toshkent-2021, 256-bet.
5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild, Toshkent, 2013, 531-bet.

BO'LAJAK O'QITUVCHINING TA'LIM MUASSASASIGA QO'YILGAN ILK QADAMI

M.A.Jumayeva

**Navoiy davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim kafedrası
dots.v.b. (PhD), Muxammatova Dinara Navoiy davlat Pedagogika instituti
talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada amaliyot davrida talabalar innovatsion faoliyatga kirishishlari, amaliyotchi talabaning dastlabki qadamlari hamda, talaba dastlabki pedagogik faoliyati davridagi quvonch yoki qiyinchiliklar maktab jamoasi va oliy o'quv yurtining hamkorligiga ham ko'p jihatdan bog'liqligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: axborot-resurs, o'quv-tarbiya, malaka, ko'nikma.

ПЕРВЫЙ ШАГ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ В УЧЕБНОЕ ЗАВЕДЕНИЕ

Аннотация: В данной статье студенты начинают инновационную деятельность во время практики, первые шаги студента-практиканта, а радости или трудности в ходе первоначальной педагогической деятельности студента во многом зависят от сотрудничества коллектива школы и высшего учебного заведения.

Ключевые слова: информационно-ресурс, образование, квалификация, навык.

THE FIRST STEP OF A FUTURE TEACHER TO AN EDUCATIONAL INSTITUTION

Abstract: In this article, students begin innovative activities during practice, the first steps of a student trainee, and the joys or difficulties during the student's initial teaching activity largely depend on the cooperation of the school staff and the higher education institution

Key words: information resource, education, qualification, habit.

Hozirgi kunda o'qituvchilarning o'z pedagogik mahoratlarini takomillashtirishi uchun keng imkoniyatlar mavjud. Har bir o'quv yurtida zamonaviy axborot-resurs markazlari tashkil etilgan. Ularda internet tarmog'ining mavjudligi masofaviy ta'lim orqali o'z bilimlarini har tomonlama boyitish, o'qitadigan fanlari buyicha yangiliklarni o'rganib olish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari o'quv yurtlarida "fan oyliklari", "fan haftaliklari" yoki har oyda ma'lum bir fanni o'qitishga e'tibor berilishi, u bo'yicha tadbirlarning tashkil qilinishi xam bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga, ularni ijodiy ishlashga undaydi. Shuningdek, darslarga puxta tayyorgarlik ko'rib o'tish va ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy-siyosiy tadbirlarga faollik, amaliyotchi-talabalarni o'z kasbiga va o'quvchilar bilan ishlashga ijodiy yondashish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Amaliyot davrida talabalar innovatsion faoliyatga kirishishlari uchun quyidagilarni o'rganishlari zarur:

- o'z mutaxassisligi, pedagogik-psixologik va metodik bilimlarini kengaytirish, mustahkamlash, boyitib borish, ulardan amalda foydalanish;
- ilmiy tadqiqot faoliyatiga doir ko'nikma va malakalarga ega bo'lish;
- o'quv-tarbiya jarayonida o'z-o'zini tahlil qilish va yangiliklar kiritish;
- mustaqil ravishda o'zining pedagogik tajribasini doimiy oshirib borishga intilish;
- o'quvchilarni kuzatish va o'rganish mahoratini egallash;
- o'quvchilar bilan muloqot qila olish, aloqa o'rnatish mahoratini egallash;
- qiynalayotgan o'quvchilarni aniqlash va ularga pedagogik yordam ko'rsata olish;
- darslar, tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va tahlil qilishni o'rganish;
- pedagogik aloqalar, pedagogik munozara madaniyatini o'rganish va ularda ishtirok etish.

Amaliyotchi talabaning dastlabki qadamlaridagi muvaffaqiyat va qiyinchilik, kamchiklar faqat u uchun emas, balki uni o'qitayotgan oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilari hamda rahbarlari uchun xam jiddiy imtihondir.

Talaba dastlabki pedagogik faoliyati davridagi quvonch yoki qiyinchiliklar maktab jamoasi va oliy o'quv yurtining hamkorligiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Amaliyotchi talabaning pedagogik amaliyotga kirishishi uning inson sifatida hayotida maqomining o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Oliy o'quv yurtida u talaba edi, bugun maktabda o'qituvchi-amaliyotchi. Uning bunday tarzda maqomining o'zgarishi o'ziga va kishilarga munosabatining ham keskin o'zgarishiga olib keladi.

Talabaning ta'lim ob'ektidan ta'lim-tarbiya tashkilotchisi, rahbari, uni tartibga soluvchi sub'ektiga aylanishi, o'zining yangi maqomiga ko'nikishi, har tomonlama bilim olish kelajakda yaxshi o'qituvchi-tarbiyachi bo'lishining garovidir. Bunday o'zgarish unda yangi hissiyotlar, yangi kasbini yaxshiroq egallash istaklarining kurtak yoyishi uchun xizmat qilmog'i lozim.

Pedagogik amaliyotni o'tayotgan bakalavr talaba hali to'la shakllangan o'qituvchi emas. Uning mohir o'qituvchi bo'lib shakllanishi amaliy faoliyatda, maktabda jo'shqin ta'lim-tarbiya muhitida bevosita pedagogik faoliyatda amalga oshadi. Bunda pedagogik amaliyot ham nazariy, ham amaliy, ham ruhiy jihatdan juda muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyot davomida talaba jiddiy kasbiy tayyorgarlikdan o'tadi. Unda o'z kuchiga ishonch, o'z ijodiy pedagogik faoliyatidan qoniqish hamda ijodiy ishlash istagi hosil bo'ladi. Talabaning pedagogik jarayon talablariga moslashuvida u ish olib boradigan sinf o'qituvchilari ham muhim rol o'ynaydi. Chunki ular amaliyotda talaba mehnatining ob'ekti hisoblanadi. Amaliyotda talabaning kelajak pedagogik faoliyatiga muvaffaqiyatli kirishishi murakkab jarayon sifatida shunday qator omillar ta'sirida yuz beradi. Shuning uchun pedagogik faoliyatning boshlang'ich davridagi muvaffaqiyatsizlik talaba hayotida bir umrga iz qoldirishi mumkin. Bunda bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanishida amaliyot o'tadigan jamoa undagi shakllangan munosabatlar, o'quvchilar hamda amaliyot rahbarlarining g'amxo'rliqi va talabchanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchining ta'lim muassasasiga qo'yilgan ilk qadami uning o'z hatti-harakatlarini tartibga solishi, o'z o'quvchilarining kelajakda qanday salohiyat egasi bo'lishini tasavvur qilishi, o'quvchilarda qanday fazilatlarni rivojlantirish arurligini bilishida asosiy poydevor hisoblanadi.

Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarda kreativ yondashuv asosida innovatsion pedagogik faoliyatni rivojlantirishda quyidagilarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir:

- darslar (an'anaviy va noan'anaviy) har xil faollashtirivchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llab o'tish malakalarini egallash;

- sinf raxbari ishini bajarish turli tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish, o'tkazish, sinf jamoasi va a'lochi o'quvchilar bilan ishlay olishga o'rgatish;

- pedagoglik kasbiga mehrni pedagogik-psixologik, metodik fanlarni o'rganish va ulardan amaliy faoliyatida foydalanishni tarbiyalash;

- o'quvchilar salomatligini mustahkamlash ko'nikmalarini singdirish.

Bu vazifalarni bajarish bilan birga amaliyotchi-talaba quyidagi (ko'nikma) malakalarni egallashi lozim:

- o'quvchilar shaxsi va sinf jamoasini ta'lim-tarbiyani rivojlantirishni amalga oshirish nuqtai nazaridan o'rganish;

- ta'lim-tarbiyaning umumiy maqsadidan kelib chiqib o'quvchilar yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib ularga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlaridan foydalanish;

- bolalar bilan mustaqil ishlash, ularni turli ko'rsatmalar bilan tanishtirish, guruh o'quvchilarini to'garaklarga jalb qilish, turli ko'rik tanlovlar, ertalabki sog'lomlashtirish ishlari, marafonlar o'tkazish ishlarini tashkil etish;

- turli ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy mavzularda suhbat, ommaviy axborot vositalari materiallari bilan tanishtirib borish, sport musoboqalari, taniqli olimlar, shoirlar va mehnat faxriylari bilan uchrashuvchilar tashkil etish;

- yaqin atrofdagi ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlardagi mehnat jarayonlari bilan tanishtirish orqali o'quvchilarni kasbga yo'llash ishlarini tashkil etish;

- o'quvchilarni tabiat qo'yniga sayr qildirish, ularni tabiat bilan tanishtirish, jonli burchaklar tashkil etish, o'lkashunoslik materiallaridan namunalar yig'ishga o'quvchilarni o'rgatish;

- o'quvchilar yoshiga mos turli didaktik o'yinlar o'tkazish;

- ta'lim muassasasining ichki tartib qoidalariga rioya qilish va unga o'quvchilarni o'rgatish;

- ta'lim muassasasida me'yoriy-huquqiy va normativ hujjatlar bilan tanishish va ularni yuritishni o'rganish.

- ota-onalar bilan tashkiliy, ommaviy tarbiyaviy ishlar olib borish ko'nikmalarini egallash lozim.

Pedagogik amaliyot davrida bo'lajak o'qituvchilarda kreativ yondashuv asosida innovatsion pedagogik faoliyatni rivojlantirish maqsadida quyidagi pedagogik vazifalarni bajarish maqsadga muvofiqdir:

- o'quv mashg'ulotlarining dars ishlanmalarini va mavzuiy rejalarini ishlab chiqarish, amaliyot davomida sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish;

- darslarni mustaqil tayyorlash va o'tkazish, o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish;

- bolalar tarbiyasiga kompleks yondashgan holda turli xil sinfdan va maktabdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlarni o'tkazish;

- o'qituvchilar va ularning ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni pedagogik maqsadga muvofiq ravishda o'rgatish;

- maktab hujjatlarini olib borish (sinf qaydnomasi), o'quvchilar kundaliklari, daftarlarini tekshirish, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar tayyorlash;

- ota-onalar bilan yakkama-yakka ish olib borish, ota-onalar faollari bilan ishlash, ota-onalar yig'ilishlarida tarbiyaning muhim muammolari to'g'risida so'zga chiqish;

- aholi turar joylarida, mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan madaniy-ommaviy ishlar olib borish;

-amaliyot mobaynida o'qituvchilar va shaxsiy tajribalarni umumlashtirish, tahlil qilish hamda ommalashtirish va h.k.

Pedagogik amaliyot talabalarning nazariy tayyorgarligini boyitadi, olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishga, amaliy vazifalarini hal qilish uchun o'rganilayotgan fanining nazariy qoidalaridan foydalanishga imkon beradi.

Pedagogik amaliyotning ta'limiy xarakteri samarasi ko'pincha oliy o'quv yurti va maktabning o'zaro hamkorlikda olib borilgan ishlarga bog'liq. Pedagogik amaliyot o'sib kelayotgan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashda, yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqarish, mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlashda bo'lajak o'qituvchi uchun birinchi jiddiy sinov bo'lib hisoblanadi, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy pedagogik fazilatlarining shakllanishiga amaliyot davridagi o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida mustaqil ishlashga ham faol ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
3. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – T.: O'zbekiston. NMIU, 2019. – 400 b.
4. Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008. – 180 b. Abduquddusov O. Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: Fan, 2005. – 157 b.
5. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o'kitish texnologiyalari. – T., 2001. – 69 b.
6. Alimov A.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss... – T., 2018. – 142 b.
7. Jumayeva.M.A. Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi ped.fan.dok.(PhD) diss.-Buxoro. 2022.yil.

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINING KOMMUNIKATIV VOSITA SIFATIDAGI RIVOJLANISHI

Negmatova Sanobar Qarshiboyevna
O'zbekiston, Navoiy innovatsiya universiteti
”Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası Maktabgacha ta’lim
yo’nalishi o’qituvchisi

Annotatsiya:Maqolada bolada ichki nutq tarkib topishi, bola nutqining rivojlanishidagi muhim psixologik xususiyatlar, har bir yosh guruh bolalarning yosh xususiyatlari va imkoniyatlari, bolalarning tafakkurini va uning